(5). Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. Учебник для институтов физической культуры, М., "Физкультура и спорт", 1991, с. 543.

Ermatova Mexriniso Bekmuradovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogik instituti o'qituvchisi; ermatovamehriniso948@gmail.com)

TALABALARGA MILLIY KASHTACHILIKNI O'RGATISH YO'LLARI

Annotatsiya. *Milliy qadriyatlarni talabalar ongiga singdirish ularning ma'naviy yetukligi, madaniy o'zligini anglash va jamiyatga munosib shaxs bo'lib yetishishi uchun muhimdir. Milliy hunarmandchilik, xususan, kashtachilikni talabalar ongiga singdirish orqali ularda milliy qadriyatlar, ijodiy fikrlash, va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Milliy kashtachilik bu o'zbek xalqining boy madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, asrlar davomida shakllanib kelgan hunarmandchilik turi ekanligi barchamizga ayondir. U nafaqat estetik go'zallikni, balki xalqning urf-odatlari va hayot tarzi bilan bog'liq an'analarni o'zida mujassam etadi. Zamonaviy yoshlar orasida milliy hunarmandchilik an'analarini saqlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida talabalarga milliy kashtachilikni o'rgatish, ularni san'at va madaniyatga jalb etish muhim vazifalardan biridir.Mazkur maqolada talabalarga milliy hunarmandchiligimizning bir turi, ya'ni kashtachilikni qanday o'rgatish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *milliy hunarnadchilik, kashtachilik, madaniy meros, hududiy xususiyatlar, naqshlarning ramziy ma'nosi.*

Эрматова Мехринисо Бекмурадовна (Денов, Предпринимательско-педагогический институт, преподаватель кафедры Дошкольного образования; ermatovamehriniso948@gmail.com)

СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ВЫШИВКЕ

Аннотация. *Привитие национальных ценностей в сознании студентов важно для их духовной зрелости, понимания своей культурной самобытности, становления ими достойными личностями в обществе. Прививая интерес и любовь к национальным ремеслам, особенно к вышивке, в сознании учащихся можно сформировать национальные ценности, творческое мышление, практические навыки. Всем нам ясно, что национальная вышивка является неотъемлемой частью богатого культурного наследия узбекского народа, формировавшегося веками. Оно воплощает в себе не только эстетическую красоту, но и традиции, связанные с обычаями и образом жизни людей. Сохранение и развитие национальных ремесленных традиций среди современной молодежи становится все более важным. Поэтому обучение национальной вышивке студентов высших учебных заведений, привлечение их к искусству и культуре является одной из важных задач.*

Ключевые слова: *народные промыслы, вышивка, культурное наследие, региональные особенности, символическое значение узоров.*

Эrmatova Mekhriniso Bekmuradovna (Denov Entrepreneurship and Pedagogical Institute Teacher of the preschool education department; ermatovamehriniso948@gmail.com)

A METHOD OF TEACHING STUDENTS NATIONAL EMBROIDERY

Annotation. *Inculcating national values in the minds of students is important for their spiritual maturity, understanding of their cultural identity, and for them to become worthy individuals in society. By inculcating national crafts, especially embroidery, in the minds of students, national values, creative thinking, and practical skills can be formed in them. It is clear to all of us that national embroidery is an integral part of the rich cultural heritage of the Uzbek people, and it has been formed for centuries. It embodies not only aesthetic beauty, but also traditions related to people's customs and lifestyle. Preservation and development of national handicraft traditions among modern youth is becoming more and more important. Therefore, teaching national embroidery to students in higher educational institutions, attracting them to art and culture is one of the important tasks. It talks about how to teach one of our crafts, embroidery.*

Key words*: folk crafts, embroidery, cultural heritage, regional characteristics, symbolic meaning of patterns.*

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atining ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash, an'anaviy va o'ziga xos turlarni qayta tiklash hamda xalq hunarmandlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PF-1714-farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1977-yil 4-iyundagi 282-qarorida o‘z aksini topgan [1].

Bugungi kunda madaniy-ma’naviy qadriyatlarni saqlash, xalq amaliy san’ati, milliy hunarmandchilik an’analarini qayta tiklash va ularning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash masalasiga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilayotgani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-farmonida keltirib o‘tilgan [2]. Talabalarga milliy kashtachilikni o‘rgatish nafaqat ularga amaliy ko‘nikmalarni, balki madaniy merosni tushunish va qadrlashni ham o‘rgatadi.

Maqolaning maqsadi. Talabalarga amaliy san’at turlari haqida tushuncha berish hamda kashtachilik sir asrorlari bilan tanishtirish.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda kashtachilik san’ati bo‘yicha tadqiqot olib borgan bir qator olimlar mavjud. Ularning ayrimlari haqida quyida ma’lumot beramiz. Zinaida Mixaylovna. U 20 yil davomida Samarqand badiiy maktabida dars bergan va ijodiy faoliyat bilan birga, pedagogik faoliyatni samarali olib borgan. Mo‘minova Gulchehra Ismoilovna qadimgi Ustrushona kulollik tarixi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi bo‘yicha umumiy tadqiqotlar olib borgan olimlar ham mavjud. Masalan, U.U.Mansurov va A.Sh.To‘xtaboyev tomonidan yozilgan “O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi” nomli o‘quv qo‘llanma mavjud. Termiz davlat universtiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) Shomirzayev Maxmatmurod Xurramovich tomonidan “Texnologiya ta’lim metodikasi” darsligida, “Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” nomli darsliklari mavjud. Shuningdek, rossiyalik olimlar orasida kashtachilik va xalq hunarmandchiligi bo‘yicha tadqiqot olib borgan bir qancha mutaxassislar bor. Nina Kiseleva, Galina Pugachenkova, Elena Anisimova va S.G.Vasilyevlar. Bu olimlar kashtachilik san’ati va xalq hunarmandchiligi bilan bog‘liq ilmiy ishlari orqali bu sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan.

Asosiy qism. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang-barang bo‘lib, madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san’at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘zbek amaliy bezak san’ati turlarining shox ildizlari uzoq davrga, insoniyatning ibtidoiy jamiyatiga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz [2;10-b.].

Material va metodlar. Talabalarga xalq amaliy san’ati bilan tanishtirish jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagi “ilo‘or tajribalarni o‘rganish metodi”, “kuzatish”, “suhbat”, “tarqatma material” metodlaridan foydalanildi.

1. Birinchidan, talabalarga milliy kashtachilikning tarixi, uning turli hududlardagi uslublari va ramziy ma’nolari haqida ma’lumot berish. Kashtachilik materiallar va usullari hamda kashtachilikda ishlatiladigan iplar, matolar va asbob-uskunalar haqida gapirib berish.

2. Amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish auditoriyadan tashqarida mashg‘ulotlarda talabalarga, dastlab, sodda naqshlarni tikish o‘rgatilib, so‘ngra murakkabroq texnikalarga o‘tish. Har bir hududning o‘ziga xos kashtachilik usullarini amalda namoyish etish (Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va boshqa viloyatlar). Har bir talaba o‘z kashtachilik loyihasini ishlab chiqishi va amalga oshirishi mumkin.

3. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali kashtachilik texnikalari bo‘yicha videolarni tomosha qildirish va naqshlar yaratish uchun maxsus grafik dasturlarni o‘rgatish.

4. Talabalarning ishlari ko‘rgazmasini tashkil qilish, milliy festivallarda ishtirok etish orqali rag‘batlantirib borish ularni faollikka chorlaydi.

5. Ustozlar bilan uchrashuvlar. Kashtachilik sohasida muvaffaqiyatga erishgan hunarmandlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish orqali talabalarga faqat motivatsiya beradi.

6. Kashtachilikning tijoratda qo‘llanilishi, milliy va xalqaro bozorlarda qadrlanishi haqida ma’lumot berilishi ularning bu hunarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Mazkur usullar yordamida talabalarga milliy kashtachilikni nafaqat hunar, balki madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida tushuntirish mumkin.

Talabalarning milliy kashta turlarini o‘rganishi madaniy, ma’naviy va amaliy jihatdan muhim. Kashtachilik milliy hunarmandchilikning ajralmas qismi bo‘lib, xalqning boy tarixini, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Talabalar bu hunarni o‘rgangan holda, milliy merosimizni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydilar. Kashtachilik talabalarning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi, ularni yangi naqshlar va dizaynlar yaratishga ilhomlantiradi. Har bir kashtaning o‘ziga xos ma’nosi va uslubi mavjud bo‘lib, bu talabalarga ijodiy tafakkurlarini boyitishga yordam beradi. Milliy kashtachilik buyumlariga xalqaro miqyosda talab katta bo‘lib, bu talabalar uchun ish imkoniyatlari yaratadi. Kashtachilik orqali talabalar milliy mahsu-

lotlar yaratib, ularni ichki va tashqi bozorda targ'ib qilishlari mumkin. Kashtachilik talabalarni sinchkovlik, sabr va diqqatni jamlashga o'rgatadi.

Talabalar milliy kashtalarni zamonaviy dizaynlar bilan uyg'unlashtirishni o'rganib, yangi mahsulotlar yarata oladilar. Kashtachilik orqali talabalarga nafislik, uyg'unlik va badiiy didni qadrlashni o'rgatish mumkin. Kashtalarda aks etgan naqshlarning ramziy ma'nosi orqali talabalar chuqur ma'naviy saboqlar oladilar. Milliy kashtachilikni bilish xalqaro tadbirlarda ishtirok etish va madaniyatimizni targ'ib qilish imkonini beradi. Bu talabalar uchun xalqaro miqyosda aloqalar o'rnatishga yo'l ochadi. Milliy kashta turlarini o'rganish talabalarga madaniyatni saqlash, amaliy hunar egallash va kelajakda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini taqdim etadi. Talabalarga milliy kashtachilik haqida tushuncha berar ekanmiz, avvalo, uning tarixi va har bir naqsh ma'nosini ta'riflash lozim. Milliy kashtachilik san'ati uzoq tarixga ega bo'lib, uning sir-asrorlari avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Bu san'atning sirlarini o'rganish kashtachilikni mukammal egallashga yordam beradi.

Quyida milliy kashtachilikning asosiy sir-asrorlari keltirilgan:

1. Naqshlarning ramziy ma'nosi. Har bir naqshning o'ziga xos ramziy ma'nosi bor. Masalan: islimiy naqshlar tabiat bilan uyg'unlikni aks ettiradi.

Hayvonot naqshlari. Baxt, kuch va farovonlik ramzi hisoblanadi.

Gul naqshlari. Go'zallik va muhabbatni ifodalaydi.

Kashtado'zlar naqshlarni mantiqiy tartibda joylashtirgan holda, ularning ma'nolarini bir butun hikoya kabi namoyon qilishadi.

2. Rang tanlash san'ati. Ranglarning uyg'unligi kashtaning estetik go'zalligini belgilaydi. Masalan:

Qizil va oq sevgi va poklikni ifodalaydi.

Ko'k va yashil osmon va tabiatni anglatadi.

Oltin va qora boylik va salobat ramzi.

Ranglar milliy va hududiy xususiyatlarga qarab farqlanadi (masalan, Samarqand kashtachiligi yorqin ranglarga, Farg'ona kashtachiligi esa muloyim ranglarga boy).

3. Materiallar tanlash. Ip va matolar. O'zbek kashtachiligi, asosan, ipak va paxta iplaridan foydalanishni talab qiladi.

Matolar turi: adras, beqasam, shoyi kabi matolarda kashta tikish milliy an'anaga mos keladi. Sifatli materiallar kashtaning mustahkamligini ta'minlaydi.

4. Tikish texnikasi. O'zbek kashtachiligi bir necha texnikani o'z ichiga oladi. Bosma (zardo'zlik). Tillo yoki kumush iplar bilan tikish.

Qo'shma (iroqi). Murakkab naqshlarni hosil qilish uchun ishlatiladi.

Zig'irak. Qalin iplar bilan chet naqshlarini tikish texnikasi.

To'g'ri va bir xil uzunlikdagi choklar naqshning chiroyli va aniq ko'rinishini ta'minlaydi.

5. Ijodiy erkinlik. Har bir kashtado'z o'z uslubini qo'shib, an'anaviy naqshlarni zamonaviy talablarga moslashtiradi. Naqshlarning innovatsion shakllari yangi kashtachilik uslublarini yaratishga imkon beradi.

6. Sabr va e'tibor. Kashtachilik ko'p vaqt va sabrni talab qiladi. Har bir chok va naqsh puxta rejalashtirilishi va o'ta aniqlik bilan tikilishi kerak. Tajribali kashtado'zlar, avval, naqshni qalam yoki bo'yoq yordamida chizib, keyin tikishga kirishadilar.

7. Hududiy xususiyatlar. Har bir mintaqaning kashtachilik an'analari o'ziga xos. Masalan: Buxoro kashtasi, asosan, zardo'zlikka ixtisoslashgan. Surxondaryo kashtasi. Hayvonot naqshlari bilan mashhur. Andijon kashtasi. Mayda va nafis naqshlar bilan ajralib turadi.

8. Kashtachilik vositalarini to'g'ri ishlatish. Iplarning tarangligini nazorat qilish va ignaning sifati ishlash tezligi va naqsh sifatiga ta'sir qiladi. Milliy kashtachilik sirlari nafaqat texnik mahoratni, balki ijodkorlik va milliy ruhni aks ettiradi. Ushbu sirlarni o'zlashtirish orqali kashtachilik san'atining go'zalligi va boyligini namoyish etish mumkin. Talabalarning milliy kashtachilikni o'rganishi nafaqat amaliy hunarni egallash, balki ularning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Milliy kashtachilik xalqimizning tarixi, urf-odatlari va an'analarini aks ettiradi. Talabalar bu hunarni o'rganish orqali o'z milliy o'zligini anglaydi. Kashtachilikni o'rganish orqali talabalar madaniy merosni asrab-avaylab, keyingi avlodlarga yetkazadilar. Ijodkorlik va badiiy didni rivojlantirish: kashtachilik talabalarni ijodkorlikka undaydi, ranglar va naqshlarni uyg'unlashtirish orqali badiiy didini oshiradi. Milliy naqshlarni zamonaviy dizaynlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyati talabalarni yangi g'oyalar yaratishga ilhomlantiradi. Kashtachilikni o'rganish talabalarni sabrli va sinchkov bo'lishga o'rgatadi. Kashtachilik bo'yicha malaka egallash talabalarni kelajakda hunarmand sifatida mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Talabalar o'rgangan hunarini amaliyotda qo'llab, kashtachilik buyumlarini ishlab chiqarishi va sotishi

mumkin. Milliy kashtalar xalqaro bozorda yuqori baholanadi, bu esa talabalar uchun iqtisodiy foyda olish imkoniyatini yaratadi. Kashtachilikdagi naqshlar va ramzlarning ma'nosini o'rganish orqali talabalar xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini chuqurroq anglaydi. Kashtachilik jarayoni talabalarni sabr, diqqat-e'tibor va mehnatsevar-lik kabi fazilatlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Talabalar milliy kashtachilikni o'rganish orqali bu san'atni zamonaviy dunyoga moslashtirishi va yangi avlodlar o'rtasida ommalashtirishi mumkin. Kashtachilikni o'rganish orqali talabalar milliy san'atimizning noyobligini anglab, o'z madaniyatidan faxrlanish hissini his qiladi. Milliy kashtachilikni o'rganish talabalar uchun nafaqat hunarmandlik, balki ma'naviy, iqtisodiy va ijodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayon madaniyatimizni saqlash va rivojlantirishda muhim qadamdir.

Kashtado'zlik san'atining nodir namunalari hozirgi kunda jahondagi ko'plab muzeylarda, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanib kelmoqda. Peterburg, Samarqand, Buxoro, Moskvadagi Sharq madaniyati muzeylarida, O'arbiy Yevropa, jumladan, Berlin xalqshunoslik muzeyi shular jumlasidandir. Bu kashtalar 19-asr oxirlarida O'zbekistondan olib ketilgan. O'zbek kashtasi yaxshi o'rganilmagan, ular haqida juda oz ma'lumot bor.

O'zbek xonadonining asosiy bezaklaridan biri kashtadir. Ayniqsa, bayram, to'y, marosim paytlarida ular o'zbek xonadonida alohida ahamiyat kasb etadi. Kashtadagi katta gullar xonaga to'g'ri nisbatda joylantiriladi va uzoqdan yaxshi ko'rinishi ham e'tiborga olinadi. Qorong'iroq uylarda joylashtirilgan rango-rang ipak kashtalar tovlanib turadi va insonga estetik ruh bag'ishlaydi. Kelin tushadigan xonaning devorlarida bo'sh joy qoldirilmaydi. Xuddi shu xususiyat boshqa millat va elatlardan farqlanadi. "Takiyapo'sh" Nurotada, "bolinpo'sh" Buxoroda, "yostiqpo'sh" Samarqand va Shahrisabzda yuritiladi. Bular taxmonga (rax) yig'ilgan ko'rpa-yostiqlarni yopib qo'yadi. Taxmon uyning to'rida bo'ladi.

Kashtachilik kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi, uylarni bezatishdagi ahamiyati bilangina emas, balki asrlar davomida shakllangan odat va rasm-rusmlar sababli ham xalq orasida keng tarqalgan edi.

Yirik kashtalar. So'zana, takiyapo'sh, joynamoz–inson, ayniqsa, xotin-qizlar hayotidagi quvonchlik hodisalar bilan bog'liq bo'lgan. Ularni, asosan, kelin tomon atab tikar va beriladigan qiz sepining majburiy hamda asosiy qismini tashkil qiladi. Yosh kelin-kuyovlarga qadim-qadimdan saqlanib kelayotgan odatga ko'ra, kashta gullariga "yomon ko'zdan saqlovchi" tumorchalar qo'shib tikilgan. Bitgan kashtaga atayin ayrim joylari chala qoldiriladi. Bu esa o'ziga xos ramziylikni bildiradi, ya'ni, farzandlar davom ettirishi, hayotining bog'liqligi, avloddan avlodga o'tishi yoki to'y ketidan to'y kelsin va kashtalar tikilaversin, qizim omon bo'lib, boshimiz xursandchilikdan chiqmasin, degan ezgu niyatlari bildiradi.

Kashtachilik san'atiga ayollar o'zlarining kelajaklari, bolalari va o'z baxtlari haqidagi orzu-umidlarini, tabiatga bo'lgan muhabbatlarini va go'zallikka intilishlarini singdiradilar. Bunday kashtaning noyob san'at sifatida yaratilishi tomoshabinning bahri-dilini, insonparvarlik, hayot va tabiatni sevish, ruhiy ozuqa olishdek insonda mehr uyg'otadi.

Natija va muhokama. Har bir oilada kashta tikish odat bo'lib, qizlar yoshligidan o'rgatilib boriladi. Ular o'zlariga onalardan chala qoldirilgan kashtalarni tikib davom ettirganlar va o'zlari ham yangi kashtalar tikkanlar. Shofirkon va Nurotaning badiiy kashtalari bilan tanishar ekanmiz, naqshlari va ranglari o'xshashligiga qaramasdan, ikkita bir xildagi so'zanani topa olmayman. Har bir buyum o'zicha noyob. 20-asr davomida uydagi an'anaviy chevarlik shaklida rivoj topib kelayotgan kashtado'zlik ma'lum bir sabablarga ko'ra, ommalashuv doirasi susayib, asosan, respublikaning qishloq-tumanlari bilan chegaralanib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Shofirkon hamda Nurota kashtachiligini o'rganish asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Xalqning fikri va his-tuyg'ularini, voqelikni to'g'ri tushunish kashta va so'zanalardagi mukammal obrazlarda ifodalangan. Tadqiqotchi V.S.Voronovning xalq san'atiga bergan xarakteristikasini bu san'atga ham tatbiq etish mumkin. "Bu ortiqcha so'z, bekorchi jumlalari bo'lmagan aniq, qat'iy va ajoyib nutqdir".

Barcha badiiy vositalar naqsh tuzilishi va uning dekorativ talqini, rang jihatdan hal etilishi, buyumning tikilishi va tikuv uslubi bir-biriga juda bog'liqdir. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, boyitadi va har jihatdan ajoyib qismlari bir-biriga uzviy bo'lgan dekorativ badiiy asar yaratishga xizmat qiladi.

Chevarlarning zo'r badiiy didi, bezaklarni matoga o'z o'rnini topib joylashtirishda ham ko'rinadi. Ular gazlamani haddan tashqari bezab tashlamaydilar, shu bilan birga, bekorchi joy ham bo'sh qoldirilmaydi. Shu sababli fon va bezaklar bir-biriga uzviy joylashadi va ajoyib manzara kashf etadi. Kashta bezaklari orasidagi fonning o'zi ham pannoda go'yo qo'shimcha bezakday ko'rinadi. Fonning bunday aktiv roli O'rta Osiyo xalqlari dekorativ san'atiga, umuman, xos narsadir.

Asosan, simmetrik bo'lgan so'zana bezaklari, ko'pincha, qat'iy geometrik simmetriyadan biroz chetga chiqadi. Masalan, pannoning to'rtala burchagi har doim ham bir xil bo'lmaydi: uning bir bo'lagida qo'-

shimcha kichik bezaklar bo‘lishi mumkin, boshqa bo‘lagidagi bezaklar esa unga uncha hamohang bo‘lmaydi. Bezaklarning bunday erkin joylashtirilishi o‘simliksimon chiziqlarning tabiiy ritmi kabi kashtalarga alohida joziba beradi. Har bir gulni har safar erkin chiziqlarda berishga urinishda ham bu jonlilik, joziba sezilib turadi. Shakllari jihatidan sodda bo‘lgan bezaklar, ko‘pincha, bir xil chiziqlarga ega bo‘ladi. Shuning uchun bezaklarning rang-barangligi ikkita bir xil detalning turlicha ishlanishi natijasida hosil qilinadi.

Kashta asosiy badiiy vosita bo‘lgan ipaklar, shuningdek, tikuv uslubi asosida amalga oshiriladi. Kashta uslubi asarning badiiyligiga bevosita ta’sir etadi. Matodagi choklarning o‘zi ham rangli ipak bilan birga kuchli dekorativ ta’sirchanlikni oshiradi. Bunda kashta tikish mahoratigina emas, balki badiiy did, nafosat, ipaklarning yaxshi yigirilganligi, rangi va sifati ham ahamiyatga ega.

XIX asrdagi eng yaxshi kashta namunalarining o‘chmas jozibasi va o‘ziga xosligi ularning uzviy joylashtirilgan gullar ritmida, har bir kashta kompozitsiyasini, kutilmaganda, yangicha hal etilishida, yorqin, hayotbaxsh ranglarning uyo‘unlashishi va mahorat bilan tikilishidadir. Yuzlab, minglab so‘zanalarni tomosha qilganda ham, ikkita aynan bir xil asar uchratilmaydi. Ularning har biri o‘zicha mustaqil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-1714-farmoni.

(2). Vazirlar Mahkamasining 1977-yil 4-iyundagi 282-qarori.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-farmoni.

(4). Shomirzayev M.X. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Darslik, T., “Lesson Press” MCHJ nashriyoti, 2023.

(5). Shomirzyaev M.X. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Darslik, 2023.

Kurbanov Munisbek Umirbekovich (Urganch davlat universiteti “Texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail:munisbek.qurbanov@mail.ru),
Matkarimov Azamat Farhod o‘g‘li (Urganch davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail: m.azamat@urdu.uz)

MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISHDA TALABALARNING ESTETIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning estetik madaniyatini shakllantirish muammosiga bag‘ishlangan. U shaxsni barkamol rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning mazmuniy va protsessual tomonlari haqidagi ilmiy fikrlarni kengaytiradi. Ushbu ishning maqsadi texnologiya fani talabalarining estetik madaniyatini shakllantirish vositalarini aniqlashdir. Maqolada keltirilgan xulosalar universitetda mutaxassislik fanlarini o‘qitishda talaba shaxsining estetik madaniyatini shakllantirish jarayonida ishtirok etishning eng samarali usullarini tanlashga imkon beradigan asosni shakllantirish mumkin deb hisoblashga asos beradi.*

Kalit so‘zlar*: estetik madaniyatni shakllantirish, san’at, fan, gumanitar bilim, shaxs, til, pedagogik faoliyat, amaliy san’at, xalq-hunarmandchiligi, talaba, dastur.*

Курбанов Мунисбек Умирбекович (преподаватель кафедры технологического образования Ургенчского государственного университета; e-mail:munisbek.qurbanov@mail.ru),
Маткаримов Азамат Фарходович (преподаватель кафедры технологического образования Ургенчского государственного педагогического института; e-mail: m.azamat@urdu.uz)

ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация. *Статья посвящена проблеме формирования эстетической культуры студентов. Формирование эстетической культуры расширяет научные представления о содержательных и процессуальных аспектах педагогической деятельности, направленной на всестороннее развитие личности. В статье даны сведения о том, что участие студентов направления “Технологическое образование”в формировании эстетической культуры в процессе обучения учебным дисциплинам по специальности дает возможность выбирать наиболее эффективные методы формировании личности профессии учителя.*

Ключевые слова: *формирование эстетической культуры, искусство, наука, гуманитарное знание, человек, язык, педагогическая деятельность, практическое искусство, народное ремесло, ученик, программа.*